

**ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI HIKOYATLARDA  
DO‘ST TIMSOLINING AKS ETISHI (“IKI JAHONDOR MUXOLAFATIDIN ...”  
HIKOYATI TALQINIDA)**

Shodiya Otanazarova A’zambek qizi  
*Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** O‘zbek adabiyotida do‘st timsoli juda qadim zamonlardan qo‘llanib kelingan. Hayotda sadoqatli do‘st topish, do‘stlikning orqasidan baxt-saodatga erishish syujeti asosiy syujetlardan hisoblangan. Do‘stlikning maqomi xususida turli rivoyatlar, hikoyatlar to‘qilgan. Hazrat Mir Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida do‘stlik tushunchasini juda ulug‘lagan. Hayoti davomida o‘ziga do‘st deb bilgan insonlarni juda izzat-ikrom qilgan. Ularga bag‘ishlab maxsus asarlar yaratgan, shu bilan birga do‘st timsolini o‘z asarlarida ham keng qo‘llagan. Alisher Navoiy “Xamsa” ning beshinchi dostoni bo‘lmish “Saddi Iskandariy” dostonida ham bir qator do‘st timsollari yaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** ikki jahondor, ikki do‘st, vafo qiymati, Chingiz va Xorazmshoh.

**Abstract:** The symbol of a friend has been used in uzbek literature since ancient times. The plot of finding a loyal friend in life and achieving happiness through friendship is one of the main plots. Various narratives and stories are woven about the status of friendship. Alisher Navoi also praised the concept of friendship in his works. Throughout his life, he respected the people he considered his friends. He created special works dedicated to them, and at the same time, he widely used the image of a friend in his works. Alisher Navoi also created a number of friend symbols in the epic “Saddi Iskandari”, which is the fifth epic of “Khamsa”.

**Key words:** two world leaders, two friends, the value of loyalty, Genghis and Khorezmshah.

### **KIRISH**

Do‘stlik, do‘stga vafoli bo‘lish borasida badiiy adabiyotimizda juda ko‘p rivoyatlar to‘qilgan, hikmatlar bitilgan. Do‘stlikning avvali tanishmoqlikdir. Ta’bir joiz bo‘lsa, tanishish do‘stlik manziliga olib boruvchi bir yo‘ldir. Agar bu yo‘ldan to‘g‘ri bo‘lmay, poyintar-soyintar, egri-bugri qadam tashlansa, g‘iybat, ig‘vo, hasad ariqlaridan suv ichib turilsa, o‘rtada dushmanlik paydo bo‘lishi shubhasizdir. Haqiqiy do‘st boshga kulfat tushganda bilinadi.<sup>24</sup>

Hazrat Alisher Navoiy ham o‘zining betakror ijodida do‘stlik tushunchasiga alohida urg‘u bergenlar. Alisher Navoiy qalamiga mansub “Xamsa” dostonining beshinchi dostoni bo‘lmish “Saddi Iskandariy” dostonida ham do‘stlik tushunchasi, do‘stga sadoqatli bo‘lish hikoyatlar zamirida yoritib berilgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Dostonga kiritilgan uchinchli hikoyat ikki jahondor kelishmovchiligidan jahon ahli xirmoniga balo chaqini tushgani va ikki do‘st ittifoqligidan u yongan o‘tga rahmat yomg‘iri yog‘ib, urush alangasini so‘ndirgani haqida.

<sup>24</sup> Tohir Malik. Odamiylik mulki. – T.: “Sharq”, 2014, 154-bet.

Eshitishimcha, Chingiz va Xorazmshoh bir-birlari bilan dushmanlik urushini boshlagan ekanlar. Qudratlari yetgancha jahonni buzdilar. Bu jangda Chingiz zafar qozonib, Xorazm o'lkasini ostin-ustin qilib tashladi. Qaysi shaharni qo'liga kiritgan bo'lsa, u yerdagi odamlarning hammasini berahmlik bilan tig'dan o'tkazdi. U zulm dengizini mavjlanadirib, qahr-u g'azabini avjga chiqazdi.

Ato o'g'liga yig'labon: "hoy-hoy!"

Qiziga ano tortibon: "voy-voy!"

Qisqasi, o'lim kishilarning hayot uyiga kirishlariga to'sqinlik qilar, ajal esa omonlik yo'lini bekitib tashlagan edi. Shom mamlakatida bo'lsa kerak, shunday bir voqeа yuz berdiki, do'stlik fazilatiga ega bo'lmish ikki o'rtoq tasodifan birovga bandi bo'lib, birov emas, kofir qo'liga asir tushib qoldilar. Ikkovining ko'zlaridan yosh o'rniga qon oqar, ikkovlari ham jonlaridan umidlarini uzgan edilar. Zero, zolim bularning har ikkalasini qatl etmoqchi edi. Lekin biri ikkinchisidan avvalroq qurban bo'lishini istar edi. Maqsad – jonne o'z do'stiga fido qilmoq edi. Bir mahal qotil tig'ini qinidan sug'urib, birinchisiga urmoqchi bo'lgan edi, ikkinchisi boshini yalang qilib, o'limdan qo'rqlay: "Avval mening boshimga tig' sol, meni o'ldirgach, uning bo'ynini choparsan," – deb yolvordi. Ikkinchisini o'ldirmoqchi bo'lib, uning boshiga jafo tig'ini ko'targan edi, avvalgisi o'limni havas qilgandek boshini ochib: "Avval meni o'ldir!" – deb yalina boshladi. Bularning har biri o'z do'sti uchun qayg'uda ekanida Chingiz uyqusida bo'lib, yuqoridagi voqeа uning tushiga kirdi. Shunda voqeа guvohi bo'lgan bir kishi Chingizga:

–Ushbu ikki do'stdan vafo o'rganib, xaloyiqqa ozor berishdan voz kech! Xorazmshoh senga dushman bo'lsa, buning uchun jahon xalqining nima gunohi bor? – dedi. Ikki shohning xusumati jahonni buzib turganda, darhaqiqat, bu ikki do'st bir-biriga shu xilda vafo ko'rsatdi.

Shu asnoda uyqusidan uyg'ongan Chingiz xaloyiqqa o'limdan omonlik berdi.

Ikki do'st bilan qotil o'rtasida bo'lgan bu mojarо xalq ichida yaxshilik timsoli bo'lib qoldi.

Bu xabar kofirning qulog'iga yetib, ko'ngli yumshadi-da, ozor berishdan qo'l silkib, ikki do'stning oyoq-qo'lini yechib, ularni ozod qildi.

### **XULOSA**

Ikki shohning bir-birlariga qilgan adovatidan jahon ahli boshdan-oyoq xarob bo'lib turganda, ikki darveshning himmati va ahilligi hamda o'z hazin jonlarini birlarini bir-birlariga nisор qilishga tayyorligi tufayli jahon ahlining boshidan dushmanlik tig'i ko'tarildi. Agar kishi do'stlikni havas qilsa, unga ushbu masal mangу o'rnak bo'lib qolajak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to'plami. 20-jiddlik. – T.: Fan, 1992, 10-jild.
2. Hasanov S. Navoiyning yetti tuhfasi. – T.:Adabiyot va san'at. 1991.
3. Muhiddinov M. Nurli qalblar gulshani. – T.: Fan, 2007.
- 4.Sirojiddinov S., Yusupova D., Davletov O. Navoiyshunoslik. T.: Tamaddun, 2019.
- 5.Sultonmurod Olim. Navoiy yoshlarga. – Toshkent, 2008.

- 6.Tohir Malik. Odamiylik mulki. – T.: “Sharq”, 2014.  
7. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2021, 452 bet.